

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-6/3**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**Бош муҳаррир:***Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.***Бош муҳаррир ўринбосари:***Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.***Таҳрир хайати:**

<i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>	<i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>	<i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>
<i>Абдуллаев Рашид Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>
<i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i>	<i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>
<i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>	<i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>	<i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>
<i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>	<i>Сотилов Гойипназар, к/х.ф.д., проф.</i>
<i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>	<i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i>
<i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>	<i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>
<i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., проф.</i>	<i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>
<i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>	<i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>
<i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>	<i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>
<i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>	<i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>
<i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>	<i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>
<i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>	<i>Ўразбоев Файрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>
<i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>	<i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>
<i>Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>	<i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>
<i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>	<i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>
<i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>	<i>Худайберганаева Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.</i>
<i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>	
<i>Пазилов Абдуваеит, б.ф.д., проф.</i>	
<i>Рахимов Раҳим Атажонович, т.ф.д., проф.</i>	
<i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>	
<i>Рўзиев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i>	

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№6/3 (90), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 209 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

7. Hojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B.45
8. Jamolxonov M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – T., "Talqin", 2005. 210 bet
9. Mirtojdiyev M. Tovushlardagi ma'nolar. – Toshkent: O'zbekiston, 1982.
10. Qo'ng'urov R. Subyektiv baho formalarining semantik va stilistik xususiyatlari. – T, 1980

UO'K 81'373.612.2[=111/=512.133].001.36

## INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MUBOLAG'AGA ASOSLANGAN BA'ZI BIR FRAZEOLGIK BIRLIKLARNING LINGVOKOGNITIV TAHLILI

*M.Tursunov, dotsent, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*M.Ubaydullayeva, magistrant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola tilshunoslik uchun dolzarb hisoblanadigan masalalardan biri atrofida fikr yuritadi. U ingliz va o'zbek tillarida giperbolik xususiyatga ega, ya'ni mubolag'a stilistik uslubiga asoslangan holda shakllangan frazeologik birliklarning o'zaro qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Ma'lumki, aksariyat frazeologik birliklar u yoki bu stilistik troppga asoslangan holda shakllanadi. Ularning aksariyati metafora, metonimiya, mubolag'a, sinekdoxa, o'xshatish, litota va boshqa uslublar asosida shakllangan. Ikki qardosh bo'lmagan tillar frazeologiyasida ishlatiladigan giperbolik idiomalarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning shakllanish yo'llari, giperbolik tabiati, lingvokognitiv jihatdan qiyosan tahlil qilinishi ma'lum bir lisoniy natijalarni ro'yobga chiqishiga ko'maklashadi. Ma'lumki, frazeologik birliklar har bir xalq madaniyati, tarixi, yashash tarzi, an'analari, odatlari bilan chambarchas bog'liq. Har bir til frazeologiyasi faqat shu tilda so'zlaydigan xalq madaniyatiga xos bo'lgan unsurlarga ega bo'ladi. Giperbolik frazeologizmlarning shakllanishiga sabab bo'ladigan omillar ham faqat u yoki bu tilga xos bo'lgan spetsifik xususiyatlarni ochib berishga xizmat qiladi. Maqolada ingliz va o'zbek tillaridagi giperbolik frazeologizmlar o'zaro qiyoslanishi ushbu tillar frazeologiyasidagi ba'zi bir yangi xususiyatlarni namoyon etadi.

**Kalit so'zlar:** giperbolik tabiat, stilistik trop, badiiylik vositalari, lisoniy, bo'rttirish, asos, ma'no shakllanishi, sh'eriya, jonlantirish, kattalashtirish, g'ayritabiiylik.

**Аннотация.** Данная статья посвящена одной из самых актуальных проблем языкознания. Он гиперболизирован на английском и узбекском языках, т.е. посвящен сопоставительному анализу фразеологизмов, образованных на основе стилистического стиля выражения. Известно, что большинство фразеологизмов образовано на основе того или иного стилистического тропа. В основе большинства из них лежат метафоры, метонимия, риторика, синекдоха, сравнение, литота и другие стили. Особенности использования гиперболических фразеологизмов во фразеологии двух неродственных языков, способы их образования, гиперболичность, сравнительный анализ с лингво-когнитивной точки зрения способствуют реализации определенных лингвистических результатов. Известно, что фразеологизмы тесно связаны с культурой, историей, бытом, традициями и обычаями каждого народа. Во фразеологии каждого языка есть элементы, уникальные для культуры людей, говорящих на нем. Факторы, приводящие к формированию гиперболической фразеологии, также служат выявлению лишь специфических особенностей того или иного языка. Сопоставление в статье гиперболических фразеологий английского и узбекского языков выявляет некоторые новые черты во фразеологии этих языков.

**Ключевые слова:** гиперболичность, стилистический троп, художественные средства, лингвистика, преувеличение, основа, смыслообразование, поэзия, одушевление, преувеличение, сверхъестественное.

**Abstract.** This article deals with one of the most essential issues that is considered relevant for linguistics. It discusses and compares similar and different features of hyperbolic idioms in English and in Uzbek. As you know, most phraseological units are formed on the basis of this or that stylistic trope. Most of them were formed on the basis of metaphors, metonymy, exaggeration, synecdoche, analogy, litotes and other styles. The specific features of hyperbolic idioms used in the phraseology of two non-sibling languages, the ways of their formation, hyperbolic nature, comparative analysis of linguistic features contribute to the realization of certain linguistic results. As you know, phraseological units are closely related to each people's culture, history, way of life, traditions, habits. Each language phraseology will have an element inherent only in the culture of the people who speak this language. Factors that cause the formation of hyperbolic idioms also serve to reveal those specific features that are inherent in this or that language. In the article, the comparison of hyperbolic idioms in English and Uzbek languages demonstrates some new features in the phraseology of these languages.

**Key words:** hyperbolic nature, stylistic trope, literary means, linguistic, exaggeration, basis, meaning formation, poetry, personification, magnification, oddity.

Frazeologiya tilshunoslikning alohida bir bo'limi bo'lib, unda ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar, iboralar o'rganiladi. "Frazeologiya" termini grekcha "pharsis" fraza, ifoda "logos" ta'limot degan ma'nolarni anglatib, uning tadqiqot doirasiga faqat ko'chma ma'noga asoslangan turg'un birikmalar kiritiladi [1;7]. Tilshunoslik bo'limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e'tibori frazeologizmlar tabiatini va ularning kategorial belgilarini o'rganishga, shuningdek, frazeologizmlarning nutqda qo'llanish qonuniyatlarini aniqlashga qaratiladi. Uning eng muhim muammosi frazeologizmlarni nutqda hosil qilinadigan (ya'ni avvaldan tayyor bo'lmagan) so'z birikmalaridan farqlab, ajratib olish va shu asosda frazeologizmlarning belgilarini aniqlashdir.

Frazeologiyaning tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida shakllanishi haqiqatdan og'ir yo'llarni bosib o'tdi. Hatto atoqli ingliz tilshunosi Smirnitkiy ham frazeologiyaning alohida tilshunoslik bo'limi sifatida ajralib chiqishini qo'llab-quvvatlagan. U o'zining "Ingliz tili sintaksisi" asarida bu soha haqida quyidagicha fikr bildirgan edi:

“Frazeologik birikmalar tadqiqi bilan leksikologiyaning bir qismi bo‘lgan frazeologiya shug‘ullansa ham, bu birliklar tilning sintaktik sathida tahlil qilinishi lozim. Agar bu sohani alohida bo‘lim ekanligi tan olinmas ekan, qanday qilib biz uni fan deb atay olamiz” [2;53].

Frazeologik birliklar tilning lug‘at tarkibini tashkil qiluvchi, mazmunan bitta so‘zga teng birliklar bo‘lgani uchun ko‘p yillar davomida leksikologiya tarkibida o‘rganilib kelingan. Ammo shuni alohida ta‘kidlash lozimki, frazeologik birliklarning so‘zga ekvivalentligi alohida tahlil qilinishi lozim bo‘lgan masalalardir. Sharl Balli ta‘limotiga binoan, frazeologik birliklarning eng muhim belgisi yagona bir so‘z bilan sinonimik munosabatga kirisha olish, olmasligidir. Bunday so‘zni Sharl Balli so‘z-identifikator deb atagan va bunday o‘zgarishlarni frazeologik birliklarning ichki yaxlit belgisi sifatida talqin qilgan. Barcha tillardagi frazeologik birikmalar, xususan ingliz tilidagi frazeologik birikmalar ham, millatning donishmandligi va lingvistik didini ko‘rsatuvchi xalq ijodi hisoblanadi. Ko‘pgina frazeologik birikmalar o‘zida ingliz xalqining an‘analari, odatlari va e‘tiqodi, Angliya tarixining biz bilgan va bilmagan tarixiy haqiqat va dalillarini aks ettiradi. Ko‘plab frazeologik birikmalarining ildizlari kasbiy muloqotga borib taqaladi. Frazeologik birikmalarining asosiy manbasi – bu ularning tarkibidagi o‘zaro birikkan so‘zlarning o‘z ma‘nolarini o‘zgartirishidir. Ko‘pgina ingliz tilidagi frazeologizmlar badiiy asarlardan, turli adabiyot manbalaridan olingan. Ingliz tilidagi frazeologik birikmalarining soniga ko‘ra adabiy manbalardan keyin birinchi o‘rinni Bibliya, ikkinchi o‘rinni esa Shekspir ijodiyotidan olingan frazeologizmlar egallaydi. Yozuvchilarning asarlari, bolalar she‘riyati, ertaklar, karikaturalar ham frazeologizmlarning kelib chiqish manbasi hisoblanadi. Odatlar, tarixiy haqiqatlar, an‘analar va boshqalar bilan aloqador frazeologik birikmalar ingliz tilidagi frazeologik birikmalarining aksariyati mualliflari noma‘lum, qadimgi ingliz tilining so‘z tartibida tuzilgan so‘z birikmalari hisoblanadi. Bunday keng tarqalgan frazeologik birikmalar xalq ijodi namunalaridir.

Frazeologizmlar tabiatan metaforik hisoblanadi, ya‘ni frazeologik birlikning asosida metafora mavjud. Lekin shunga qaramasdan, barcha frazeologik birliklar asosida metafora mavjud bo‘ladi degan fikrni ilgari surish unchalik ham to‘g‘ri emas. Chunki frazeologik birliklar asosida mubolag‘a, litota, metonimiya, jonlantirish kabi bir qator boshqa stilistik troplar ham bo‘lishi mumkinki, biz ular o‘rtasida ma‘lum bir chiziqni tortishimiz talab etiladi. Frazeologik birlik va metafora o‘rtasida anchagina farqlar mavjudligini ham alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Frazeologik birliklarning tabiatan metaforik (hamma vaqt ham emas) ekanligi ularning ma‘nolarini tushunish ba‘zida qiyinchilik tug‘dirishining sababi hisoblanadi.

Yuqorida ta‘kidlab o‘tilganidek, ba‘zi bir frazeologik birliklarda ko‘chirish asosida ma‘no tomonidan shakllanish jarayoni amalga oshadi. Tadqiqotlar natijasida shu narsa ma‘lum bo‘ldiki, o‘zbek tilshunosligiga oid aksariyat adabiyotlarda troplarga asosan ma‘nosi ko‘chirilgan frazeologik birliklar haqida to‘liq va aniq fikrlar, izohlar mavjud emas. Shunga qaramasdan ba‘zi bir manbalarda shu masalaga to‘xtalib o‘tilgan: U.Tursunov va boshqalar tomonidan oliy o‘quv yurtlari uchun yozilgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” nomli darsligida ko‘chirish haqida quyidagi fikrlarni kuzatamiz: “ko‘chirishlar asosan quyidagilar: metafora yo‘li bilan ko‘chirish, funktsional ko‘chirish, metonimiya yo‘li bilan ko‘chirish, sinekdoxa yo‘li bilan ko‘chirish. Shuningdek, ko‘chirish qorishiq holda (metaforik-funktsional, metafora-metonimiya, metanimiya-sinekdoxa tarzida) ham uchraydi” [3;81]. Sh.Rahmatullaev o‘zbek tilshunosligida frazeologik ma‘no taraqqiyoti haqida mulohaza yuritir ekan ko‘chirish va tadbiiq usuli bilan bu jarayon amalga oshishini ta‘kidlab o‘tgan. Yuqorida eslatib o‘tilgan usullardan tashqari boshqa stilistik troplar ham frazeologik ma‘noning hosil bo‘lishida asos bo‘ladi. Quyida o‘zbek tilida turli stilistik troplar asosida paydo bo‘ladigan frazeologik birliklar haqida fikr yuritamiz:

a) metafora yo‘li bilan ko‘chirish. A.Mamatov “O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasida “metafora yo‘li bilan ko‘chirish leksik ma‘no taraqqiyotida ham, frazeologik ma‘noning shakllanishi va taraqqiyotida ham mahsuldor usul sanaladi” [4;135] deya ta‘kidlab o‘tgan. Har qanday til leksikologiyasi hamda frazeologiyasida metaforaning o‘rni katta hisoblanib, metafora nafaqat leksik birliklarning rang-barangligini oshiradi, balki ularning ma‘no bo‘yoqdorligini kuchaytiruvchi vositaga aylanishi mumkin. Leksikologiyada metafora yordamida leksik ma‘no taraqqiy etiladi, frazeologiyada esa metaforaga yangi ma‘noni paydo qiluvchi, ta‘bir joiz bo‘lsa, uni yaratuvchi vosita sifatida qarashadi. So‘z birikmalarini metafora yo‘li bilan ko‘chirish asosida butunlay yangi ma‘noli til birligi yuzaga keladi. Metafora yo‘li bilan ko‘chirish butun birikmaga yoki uning ayrim qismlariga tegishli bo‘lishiga ko‘ra, to‘liq semantik qayta shakllanish va qisman semantik shakllanishlarga ajratish mumkin [4;201].

O‘xshatishga asoslangan iboralar metaforik iboralar singari o‘zbek xalqining azaldan davom etib kelayotgan ma‘lum bir an‘analari, urf-odatlari, hayot tarzi haqida so‘zlaydi, zero hech bir leksik vosita xalq tarixi va madaniyatini ibora singari ochib bera olmaydi. “Mulla mingan eshakday”, “tuyaning kallasiday”, “egarlangan otday” kabi o‘xshatishga asoslangan frazeologik birliklar kundalik turmushda ishlatiladigan hayvon harakatlarini insonga o‘xshatish asosida shakllangan. Bir so‘z bilan aytganda, o‘xshatishni metaforadan farqlash uchun undagi aniq struktural belgilardan tashqari semantik unsurlarga ham e‘tibor qaratish zarur. Ushbu maqolada biz asosan mubolag‘aga asoslangan holda shakllangan frazeologizmlar tahlilini amalga oshiramiz, avvalambor mubolag‘a uslubi haqida fikr yuritsak. Mubolag‘a (giperbola) — obrazli ifoda: adabiy asarda voqelikda mavjud va yo‘q, bo‘lishi dargumon shaxs, jonli va jonsiz narsa, voqea, hodisalarning nisbiylik mezonlari asosida kattalashtirib, bo‘rttirib, lofqofli aks ettirilishi hisoblanadi. Mubolag‘aning bosh alomatlari hayotiylikdan chekinish, favquloddaviylik, g‘ayritabiiylikdir. Mubolag‘aning in‘ikoslar o‘xshatish, istiora, sifatlash, jonlantirish, ta‘riz, tazod va boshqa badiiylik vositalarining muayyan darajadagi xizmatlari tufayli yaratiladi. Mubolag‘a ko‘proq og‘zaki va yozma adabiyotlardagi ertak, afsona, rivoyat va boshqa janrlarda, romantik, yumoristik, satirik usullarda yaratilgan asarlarda uchraydi. Mubolag‘alarga boy asarlar g‘oyat katta qiziqish, zavqshavq bilan o‘qiladi. Mubolag‘a vositasida yaratilgan ijobiy

obrazlar o'quvchini maftun etib, uning mehr-muhabbatini qozonsa, salbiylari kitobxon qalbida cheksiz g'azabu nafrat hislarini uyg'otadi. Adabiyot nazariyasida mubolag'aning ko'p xillari bor. Asosiylari: tablig', ig'roq, g'uluv. Tablig'da bo'rtirilgan belgi, xususiyatlarning haqiqatga anchayin yaqinligi sezilib turadi. Masalan: "Aningdek teshadin sakrab ushoq tosh, ki nozir bir yig'ochdin qochurub bosh" (Navoiy, "Farhod va Shirin"). Ig'roqda bo'rtirilgan belgi, xususiyatlar, hatti-harakatlarni o'quvchi xayolan tasavvur eta olsa ham, ularning hayotiylikiga ishongisi kelmaydi. Masalan: "Bola borib-borib shunday kelbatli, kelishgan, baquvvat yigit bo'lib yetishbdiki, bir qo'lida ho'kizni ko'tarmish, ko'ringan daraxtni ildiz-pildizi bilan sug'urib olib, bir joydan ikkinchi joyga ko'chira olar emish. Uning oldiga tushadigan, u bilan olishib yo bellashib, unga teng keladigan na odam topilibdi, na hayvon zoti..." ("Qayroqgosh bola" ertagidan). G'uluvda bo'rtirilgan, lofqofli in'ikoslarning hayotda borligi u yoqda tursin, bo'lishi mumkinligiga ham mutlaqo ishonib bo'lmaydi. Masalan, "Alpomish" dostonidagi "bir kam to'qson" qalmoq alplarining qiyofalari g'uluv vositasida tasvirlangan. Hammasining "kallasi kapaday, tanasi te-paday". Birining "shomurti yoqalab har yoqqa ketgan, ichida sichqonlar bolalab yotgan, izidan tushgan pishak olti oyda yetgan". Ikkinchisining "odam tushmas (tushunmas)... aytgan tiliga, besh yuz quloch arqon yetmas beliga". Uchinchisi "oh ursa, olamni buzar tovushi, to'qson molning terisidan kovushi" va hokazo. Qalmoq alplarini yuqoridagiday nohayotiy oshirib toshirib, lofqofli tasvirlashdan asosiy maqsad Alpomish va uning do'sti Qorajon qahramonligini, kuch-qudratini badiiy tasdiqlash, isbotlashdan iborat. Bundan tashqari, mubolag'a mutlaqo tushunarsiz tushunchalarga, ba'zida hatto agar u tom ma'noda tarjima qilinsa, har qanday ajnabiy aniq hayron bo'ladi. Biz ularga uzoq vaqtdan beri ko'nikip qoldik va ularni odatdagidek sezamiz.

Quyida eng tez-tez ishlatiladigan mubolag'aga oid misollar keltiriladi:

Ming uzr; qonli daryo; tog'lar jasadlari; ming kilometr yo'l; kun bo'yi turardi;

100 yilni ko'rmagan; og'irligi yuz funt.

Mubolag'a va litota ham asosan ko'chma ma'noga asoslangan. Lekin tropning boshqa turlaridagi ko'chma ma'no asosida qandaydir o'xshatish, yoki boshqa biror predmet va voqea-hodisa tushunilsa, haddan tashqari kuchaytirish yoki kichraytirish to'g'ri ma'noda tushunmaslikni talab qiladi [6]:

Uzoq yillarda qora chashmangdan

Oqqan siyohlarni o'lchasak agar,—

Qo'llasam klassik mubolag'a man —

Der edim: teng kelar Qora dengizga!

(M. Sh a y x z. o d a. «Siyohdonim».)

Ingliz tilida mubolag'a stilistik vositasiga har kungi nutqda qo'llaniladigan misollardan namunalarini quyida keltirib o'tamiz:

He's running faster than the wind. This bag weighs a ton. That man is as tall as a house. This is the worst day of my life. The shopping cost me a million dollars. My dad will kill me when he comes home. Your skin is softer than silk. She's as skinny as a toothpick. She was so happy; her smile was a mile wide. The footballer is the best player of all time. I'm so hungry I could eat a horse. It's impossible to complete this puzzle. Next Friday is never going to arrive. I've read this book a hundred times. My hand hurts so much it's going to drop off. My brother is stronger than iron. She's my guardian angel. Your brain is the size of a pea. I'm so sad that I'm drowning in tears. The leaves are dancing in the breeze.

Mazkur giperbolik so'z birikmalar har kungi hayotda shunchalik ko'p ishlatiladiki, ularning giperbolik tabiati hisobga olinmaydigan bo'lib qolgan.

Mubolag'a stilistik tropi she'riyatda va adabiyotda keng qo'llaniladi.

Misol taqriqasida buyuk ingliz adibi Uilyam Shekspirning mashhur asarlaridan biri "Makbet"dan misol keltiramiz:

"Will all great Neptune's ocean wash this blood

Clean from my hand? No."

Yuqoridagi misolda, Makbet mubolag'a stilistik tropidan vaziyatdagi ma'noni kuchaytirish uchun foydalanyapti.

Shel Silversteinning "yomg'ir" deb nomlangan she'ri mubolag'aga yorqin misollardan biri bo'la oladi.

I opened my eyes

And looked up at the rain,

And it dripped in my head

And flowed into my brain,

And all that I hear as I lie in my bed

Is the slishity-slosh of the rain in my head.

I step very softly,

I walk very slow,

I can't do a handstand—

I might overflow,

So pardon the wild crazy thing I just said—

I'm just not the same since there's rain in my head.

Yuqoridagi she'riy parchada mubolag'a ma'noni kuchaytirib, o'quvchini she'riyat olamiga to'laligicha olib kira oladi.

Ma'noni ko'chirish jihatidan mubolag'a metaforaga o'xshaydi. Chunki ular ham metafora singari narsa-predmetlarning o'xshashligiga ko'ra ma'noning ko'chishiga asoslanadi. Shunga ko'ra, o'zbek tilida mubolag'a asosida ham bir qator frazeologizmlar shakllanadi.

O'zbek tilidagi asosida mubolag'a yotuvchi frazeologik birliklarga misollar keltiramiz: joni xalqumiga keldi; bag'rini kabob qilmoq; betidan zahar tomar edi; betining terisini sidirib; birining go'shtini biri yemoq; bir kesak bilan ikki quyovni urmoq; bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday; boshida tegirmon toshi yurgizmoq; boshi ko'kka yetdi; gapga bichgan; jahli burnining uchida turadi; zardasi qaynaydi; igna bilan quduq qazimoq; ignadekni tuyadek qilmoq; igna tashlasang yerga tushmaydi; ikki kemanding boshini tutmoq; ishtaha karnay bo'ldi; ko'zidan o't chiqib ketdi; puf desa Buxoroga uchadigan; ko'zlari qinidan chiqib ketayozdi; ko'kragi tog'day ko'tarildi; miyangning qatig'ini o'ynatib yuboraman!; miyani qoqib qo'liga bermoq; og'ziga oq it kirib, qora it chiqdi; suv kelsa simirmoq, tosh kelsa kemirmoq; tili bir qarich; tiliga kaltak keldi; tog'ni tolqon qilmoq; tog'ni ursa tolqon qiladigan; tuyani tuzlamasdan yutmoq; xoda yutmoq; yulduzni benarvon uradigan; qaddi kamon; qaddi yoy bo'ldi; qovurg'asi sanalib turardi; qamchisidan qon tomardi; qashinishga tirmog'i ham qolmadi; qilni qirqqa yormoq; qil ustida; suv qilib ichmoq [5].

Ba'zi bir frazeologik birliklar metaforik ko'chirish yo'li bilan birga, uning asosida mubolag'a ham yotadi: aqlini mog'or bosdi.

Ingliz tilida ham mubolag'a asoslangan holda shakllangan bir qator frazeologik birliklar mavjud: his head is in the clouds; iceberg of a woman; make somebody's blood boil; swim with sharks; have one foot in the grave; to be over the moon; to be skin and bones (very thin in a way that is unattractive and unhealthy); her heart is in her mouth (to be very excited or nervous about something anticipated); her heart is in her throat; not know one is born; swallow the dictionary; would awaken the dead [7].

Ingliz va o'zbek tillaridagi mubolag'aga asoslangan frazeologik iboralarning qiyosiy lingvokognitiv tahlili yanada qiziqarliroq bo'lgan lisoniy ma'lumotlarni ochib beradi. "Build a castle in the air" frazeologik birligi mubolag'aga asoslangan ibora hisoblanadi, zero, uning kontekstual ma'nosi bizning shu fikrga kelishimizga asos bo'la oladi. Frazeologik birlikning izohli lug'atda keltirilgan ma'nosiga e'tibor qaratamiz: to create dreams, hopes, or plans that are impossible, unrealistic, or have very little chance of succeeding. Ya'ni, ushbu ibora "amalga oshish imkoniyati juda ham kam bo'lgan umid, rejalarni tuzish, qandaydir hech qachon amalga oshmaydigan orzularni o'ylab topish" degan ma'nolarda keladi, to'g'ridan-to'g'ri iboraning tarjimai esa "osmonda qasr qurish" hisoblanadi, her qanday holatda ham bunday ishni amalda bajarishning imkoniyati yo'q, so'zlovchi juda ham katta, amalga oshmaydigan orzu-umidlarga, turli xom xayollarga berilsa, mazkur frazeologik birlik nutqda qo'llaniladi. Ushbu frazeologik birlikning asosida mubolag'a yotipti. "Make a mountain out of a molehill" frazeologizmini tahlil qiladigan bo'lsak, u ham mubolag'a asosida shakllangan ibora hisoblanadi. Sababi inson tasavvur qilishi qiyin yoki umuman mumkin bo'lmagan ish-harakat unda tasvirlangan. O'zbek tilida aynan shu iboraning ma'nosini anglatuvchi ekvivalent frazeologizm mavjud: "pashshadan fil yasamoq". Har ikkala tildagi frazeologizmlar "bo'rttirmoq, vahima qilmoq, shov-shuv qilmoq, unchalik ham muhim bo'lmagan masalaga haddan tashqari e'tibor qaratmoq" kabi ma'nolarni bildiradi. Bu holatda biz ingliz va o'zbek tillaridagi o'xshashlikga guvoh bo'ldik. Frazeologizmlar ma'no jihatdan ekvivalent bo'lgani bilan ularning yasalishida farq borligini ham ta'kidlab o'tish zarur: ingliz tilida bir jonivorning kovakga o'xshagan uyidan tog' yasash bo'rttirish ma'nosini bergan bo'lsa, o'zbek tilida pashshani filga aylantirish yuqoridagi ma'noni hosil qilyapti, lekin baribir frazeologik birliklarning umumiy semantik ma'nosi bir. Ingliz tilidagi "head in the clouds" frazeologik birligini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu ibora ham giperbolik frazeologizm ekanligiga guvoh bo'lamiz, idioma biror bir kishining vaziyatga real baho bermasdan xayoli boshqa joyda ekanligiga yoki bilib turib vaziyatga e'tibor qaratilmayotganligiga urg'u beradi, ushbu ibora tanqidiy kontekstda qo'llaniladi. O'zbek tilida ham shunga yaqin mubolag'aga asoslangan holda shakllangan frazeologik birlik mavjud: "osmonlarda uchmoq", ushbu ibora "xayoli joyida emas, qandaydir bir kuchli tuyg'u ta'siriga tushib o'z fikrini bir joyga jamlay olish imkoniyatiga ega bo'lmaslik" degan ma'noda qo'llaniladi. Ingliz tilidagi o'ziga xos giperbolik iboralardan yana biri "cost an arm and a leg" frazeologizmi hisoblanib, "juda ham (haddan tashqari) qimmat" degan ma'noga ega. Biror bir narsaning narxi hech qachon insonning qo'li yoki oyog'ichalik qadrga ega bo'la olmasligi mubolag'a asosidagi semantik tushunchadir. O'zbek tilida mazkur frazeologizmining ekvivalenti mavjud: "narxi osmonda". Ushbu ibora ham mubolag'aga asoslangan holda shakllangan, chunki "narxning osmonda bo'lishi" inson tasavvur qila olmaydigan holatdir. Tahlillarimizni davom ettirar ekanmiz ingliz tilida og'zaki va yozma nutqda juda ham keng ishlatiladigan "to rain cats and dogs" frazeologizmiga ham to'xtalib o'tishni joiz deb topdik, ushbu idioma ham giperbolik xususiyatga ega, ma'lumki, Angliyada geografik joylashuv sababli juda ham ko'p yomg'ir yog'adi, yomg'ir xalqning madaniyatiga, har kungi hayot tarzi bilan chambarchas bog'liq hodisaga aylanib ulgurgan. "Juda ham qattiq yomg'ir yog'moq" ma'nosini beruvchi giperbolik "to rain cats and dogs" idiomasi ma'nosi o'zbek tilidagi "chelakdan suv sepganday yomg'ir yog'moq" frazeologiyasiga yaqin hisoblanadi. Har ikkala tildagi mubolag'aga asoslangan holda shakllangan frazeologizmlarning semantik shakllanishi bir-biridan farq qilishini ta'kidlab o'tish o'rinlidir. Ingliz va o'zbek tillaridagi yuqorida tahlil qilingan giperbolik frazeologizmlar bir-biriga yaqin bo'lishi, ekvivalent sifatida qabul qilinishi mumkin, lekin ularning giperbolik xususiyati, kelib chiqishi turli xil hisoblanadi. Frazeologizmlardagi giperbolik xususiyat ham u yoki bu tilda gaplashadigan xalq madaniyati va tarixiga aloqador ma'lum bir ma'lumotlarni o'zida mujassam etadi. Lingvokognitiv tahlillar shuni ko'rsatadiki, frazeologizmlardagi giperbolik asosning shakllanishi ham ingliz va o'zbek tillarida har xil hisoblanadi. Angliyaning geografik jihatdan asosan qir adirli, tog'li hududda joylashganligi uning har kungi hayoti, kishilarning turmush tarziga ham ta'sir o'tkazgan, bo'rttirish ham shu asnodagi tog'lar, qir adirlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan voqealar asnosida qurilgan (masalan, make a mountain out of a molehill). Ingliz tilidagi giperbolik frazeologizmlarning boshqa bir xususiyati esa ularning urush kontenti asnosida

qurilishi ham bo'lishi mumkin, o'z tarixi davomida Angliya ko'plab davlatlar bilan siyosiy va iqtisodiy ustunlikka erishish uchun urush holatida bo'lgan (cost an arm and a leg). O'zbek tilidagi giperbolik asosga e'tibor qaratadigan bo'lsak, asosan har kungi hayotga oid madaniy, an'anaviy unsurlarni o'z ichiga olgan lisoniy belgilarni uchratish mumkin (xoda yutmoq, boshida tegirmon toshi yurgizmoq).

Mubolag'aga asoslangan holda shakllangan frazeologizmlar har ikkala qiyoslanayotgan tilda ham mavjud bo'lib, ular asosan bo'rttirish, hayotda mutlaqo amalga oshishi mumkin bo'lmagan voqea-hodisalarni ifoda etadi. Mubolag'aga asoslangan holda shakllangan frazeologizmlarni ishlatishdan maqsad so'zlovchi yoki tinglovchiga kuchliroq psixologik ta'sir ko'rsatishdir, ularni ishlatishdan yana bir maqsad tinglovchini ko'proq hayron qoldirish, nutqni yanada jozibadorliroq, chiroyliroq, ta'sirchanroq qilishdir. Har ikkala tildagi giperbolik frazeologizmlar o'zaro qiyoslanganda iboralar shakllanishdagi asosiy mavzulardan biri bu kishilarning har kungi turmush tarzi, hayotida sodir bo'ladigan kichik voqealarga urg'u berish hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini ochib berishda har ikkala tildagi giperbolik frazeologizmlarning o'rni nihoyatda katta hisoblanadi, chunki ular tarkibida ham o'zbek ham ingliz xalqining tarixi va madaniyatiga oid bir qancha ma'lumotlar mujassamlangan. Qiyosiy tahlillar davomida giperbolik frazeologizmlarning shakllanish mavzusida ma'lum bir farqlar mavjudligini aniqladik, ingliz va o'zbek xalqi yashaydigan geografik joylashuvdan, ularning ijtimoiy, iqtisodiy holatidan, diniy ma'lumotidan kelib chiqib, mavzular farqlanadi. Frazeologik birliklar xalq og'zaki ijodi mahsuli hisoblanadi lekin ingliz tilidagi ba'zi bir giperbolik frazeologizmlar ingliz yozuvchilarining asarlaridan til lug'at boyligiga kirib kelganini tahlillarimiz davomida aniqladik. Giperbolik tabiatli frazeologizmlar ham yozma ham og'zaki nutqda, badiiy adabiyotda, folklor janrida muhim vositalar, leksik birliklar sifatida qo'llanilib, har ikkala til frazeologiyasining jozibadorligini, til rang-barangligini saqlashda hissa qo'shadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.
2. Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – Дубна: Феникс+, 2005. – 466с.
3. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmutallayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 1992. 81 p.
4. Mamatov A.E. O'zbek frazeologizmlarining shakllanishi masalalari. Fan doktori darajasini olish uchun dissertasiya. Toshkent, 1999. 116 p.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 tomlik. 1-tom. –M.: Rus tili. 1981
6. www.ziynet.uz
7. www.macmillandictionary.com

UO'K: 81-13

### CHEK TIL DARSLARIDA QISHLOQ XO'JALIGI TERMINOLOGIYALARNING MORFOLOGIK XUSUSIYATLARI

*T.R. Xamidova, o'qituvchi, Toshkent davlat agrar universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada chet tili darslarida qishloq xo'jaligi terminologiyasining morfologik xususiyatlari haqida so'z boradi. Chet tili darslarida qishloq xo'jaligi terminologiyasining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda shuni ta'kidlash kerakki, morfologiya har qanday tilning ajralmas qismi hisoblanadi. Lekin shuni ham ta'kidlash kerakki, qator lingvistik tushunchalar morfologiyani tilning alohida darajasi sifatida ajratib ko'rsatmaydi.

**Kalit so'zlar:** morfologik xususiyatlar, terminologiya, chet tillari, qishloq xo'jaligi, xorijiy so'zlar lug'ati.

**Аннотация.** В статье рассматриваются морфологические особенности сельскохозяйственной терминологии на занятиях по иностранному языку. Учитывая морфологические особенности сельскохозяйственной терминологии на занятиях по иностранному языку, следует отметить, что морфология является неотъемлемой частью любого языка. Однако следует отметить, что ряд лингвистических понятий не выделяют морфологию как отдельный уровень языка.

**Ключевые слова:** морфологические признаки, терминология, иностранные языки, земледелие, словарь иностранных слов.

**Abstract.** The article deals with the morphological features of agricultural terminology in foreign language classes. Taking into account the morphological features of agricultural terminology in foreign language classes, it should be noted that morphology is an integral part of any language. However, it should be noted that a number of linguistic concepts do not distinguish morphology as a separate level of language.

**Keywords:** morphological features, terminology, foreign languages, agriculture, dictionary of foreign words

**Kirish.** Ilmiy-texnik matnning asosiy maqsadi turli mamlakatlar va olimlar tomonidan ilmiy ma'lumotlar, fan va texnika sohasidagi yutuqlar bilan almashishdir. Turli tillarda so'zlashuvchi olimlar va ishchilar tomonidan ma'lumotni to'g'ri tushunish uchun matnning grammatik va leksik xususiyatlari uni tushunishga xalaqit bermasligi muhimdir. Bu esa tarjima qilinaotgan ilmiy yoki texnik matnning grammatik va leksik birliklarini to'g'ri aniqlash va hisobga olishni talab qiladi. Ilmiy-texnik adabiyotlarning asosiy xususiyatlaridan biri taqdim etilayotgan materialning izchilligi bilan bog'liq matnlarda so'roq gaplar juda kam uchraydi va buyruq gaplar asosan yo'q, chunki ular yuqori emotsionallikni ifodalaydi, bu kunning ilmiy-texnik uslubiga xos emas.

**Mavzuning dolzarbligi.** Fikrimizcha, chet tillar darslarida qishloq xo'jaligi terminologiyasining morfologik xususiyatlarini hisobga olgan holda, morfologiya har qanday tilning ajralmas qismi ekanligini ta'kidlash kerak. "Morfologiya" atamasi o'zining semantik ma'nosida yunon tilidan olingan - morphe - ko'rinish, i lego - gapirish. Turli